

## QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANISHIDA EKOLOGIK MADANIYATNING ROLI

Oriental universiteti  
i.f.n., dotsent Xudaynazarova Dilorom  
ORCID: 0009-0004-9551-6188  
[dilorom2019@list.ru](mailto:dilorom2019@list.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ekologik madaniyatning qishloq turizmining barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil sifatidagi o'rni tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida ekologik madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyati yoritilib, uning jamiyatda shakllanish omillari va qishloq hududlarida turizm faoliyati bilan bog'liq ekologik muammolar tahlil qilingan. Qishloq turizmi tabiiy resurslarga tayangan holda rivojlanar ekan, ekologik madaniyatni yuksaltirish atrof-muhitni muhofaza qilish, bioxilma-xillikni saqlash va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi asosiy shart ekanligi ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan. Maqolada mahalliy jamoalarning ekologik ongi va mas'uliyatini oshirish orqali turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda barqaror rivojlanishga erishishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida qishloq turizmini rivojlantirishda ekologik madaniyatni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit suzlar:** Ekologik madaniyat, qishloq turizmi, barqaror rivojlanish, ekologik mas'uliyat, tabiatni muhofaza qilish, eko-turizm, mahalliy jamoa ishtiroki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, ekologik ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, turizm infratuzilmasi, barqaror turizm siyosati, ekologik innovatsiyalar.

**Аннотация.** В данной статье исследована роль экологической культуры как фактора устойчивого развития сельского туризма. В рамках исследования раскрыто содержание понятия «экологическая культура», рассмотрены факторы её формирования в обществе, а также проанализированы экологические проблемы, связанные с туристической деятельностью в сельских районах. Поскольку сельский туризм развивается на основе природных ресурсов, повышение уровня экологической культуры является ключевым условием обеспечения охраны окружающей среды, сохранения биоразнообразия и рационального использования ресурсов, что обосновано на основе научных источников. В статье обозначены приоритетные направления повышения социально-экономической эффективности туризма и достижения устойчивого развития за счёт укрепления экологического сознания и ответственности местных сообществ. Кроме того, разработаны практические рекомендации по совершенствованию экологической культуры в процессе развития сельского туризма в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** Экологическая культура, сельский туризм, устойчивое развитие, экологическая ответственность, охрана природы, экотуризм, участие местного сообщества, рациональное использование природных ресурсов,

сохранение биоразнообразия, экологическое образование, социально-экономическое развитие, охрана окружающей среды, туристическая инфраструктура, политика устойчивого туризма, экологические инновации.

**Abstract.** This article examines the role of environmental culture as a factor influencing the sustainable development of rural tourism. The study explores the essence of the concept of “environmental culture,” identifies the factors shaping it within society, and analyzes environmental issues associated with tourism activities in rural areas. As rural tourism relies on natural resources, enhancing environmental culture is argued-based on scientific evidence-to be a fundamental prerequisite for environmental protection, biodiversity conservation, and the rational use of resources. The article outlines priority directions for increasing the socio-economic effectiveness of tourism and achieving sustainable development by strengthening the environmental awareness and responsibility of local communities. Additionally, practical recommendations have been developed to improve environmental culture in the process of developing rural tourism in the context of Uzbekistan.

**Keywords:** Environmental culture, rural tourism, sustainable development, environmental responsibility, nature conservation, eco-tourism, local community participation, rational use of natural resources, biodiversity conservation, environmental education, socio-economic development, environmental protection, tourism infrastructure, sustainable tourism policy, environmental innovations.

**Kirish.** So‘nggi yillarda barqaror rivojlanish strategiyalari doirasida qishloq turizmi jahon va milliy iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Qishloq hududlarida turizmning rivojlanishi faqat iqtisodiy foyda emas, balki ijtimoiy barqarorlik va ekologik mas‘uliyatni ham ta‘minlashi zarur. Bu jarayonda **ekologik madaniyat** asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ekologik madaniyat insonning tabiatga munosabati, ekologik bilim, axloq va faoliyat madaniyati tizimidan iborat bo‘lib, qishloq turizmining barqarorligini ta‘minlaydi. UNWTO (2022) va UNESCO (2021) ma‘lumotlariga ko‘ra, ekologik madaniyat yuqori bo‘lgan jamoalarda turizm faoliyati uzoq muddatli va iqtisodiy jihatdan samarali kechadi.

O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirish “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi doirasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan bo‘lsa-da, ekologik madaniyat darajasini oshirish va uni amaliyotga integratsiya qilish hanuzgacha to‘liq ta‘minlanmagan. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - **ekologik madaniyatning qishloq turizmini rivojlantirishga ta‘sirini ilmiy asosda baholash** va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**ADABIYOTLAR TAXLILI.** So‘nggi yillarda turizm industriyasining barqaror rivojlanishi masalalari jahon ilmiy doirasida keng muhokama etilayotgan dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Xususan, **qishloq turizmi** ekologik barqarorlikni ta‘minlash, mahalliy aholi farovonligini oshirish va madaniy merosni saqlash imkoniyatlarini yaratadigan ustuvor yo‘nalish sifatida e‘tirof etilmoqda [1]. Mualliflarning fikricha, qishloq turizmining uzoq muddatli samaradorligi tabiiy resurslarni tejamkorlik bilan boshqarish va ekologik madaniyatni yuksaltirishga

bevosita bog‘liq. **Ekologik madaniyat** tushunchasiga oid ilmiy yondashuvlar turlicha talqin qilinsa-da, ko‘pchilik olimlar uni insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabatidagi ongli xulq-atvor tizimi sifatida ta’riflaydilar [2]. Masalan, Goldman [3] ekologik madaniyatni jamiyatning ekologik bilimlari, tabiatni muhofaza qilish odatlari va ekologik mas’uliyati yig‘indisi sifatida ta’kidlaydi. Bu fikrni Daniyelsen va Marshall [4] qo‘llab-quvvatlab, qishloq hududlarida ekologik madaniyat past darajada bo‘lsa, turizm resurslari tezda tanqislashishi va atrof-muhit degradatsiyasi yuzaga kelishini qayd etadi. Qishloq turizmining barqaror rivojlanishida ekologik madaniyatning rolini tadqiq etgan mualliflar bu omilni **strategik ahamiyatga ega qabul qiladi** [5]. Xususan, Xanif va boshqalar [6] olib borgan tadqiqotlarda ekologik madaniyat yuqori bo‘lgan hududlarda qishloq turizmi nafaqat iqtisodiy o‘sishga xizmat qilayotgani, balki bioxilma-xillikni saqlash va ekologik risklarni kamaytirishga ham hissa qo‘shayotgani isbotlangan. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham ushbu mavzuni milliy sharoitdan kelib chiqib yoritganlar. Abdukarimov [7] fikricha, mamlakatda qishloq turizmini rivojlantirishda ekologik madaniyatni shakllantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. "Turizm to‘g‘risida"gi Qonun hamda "Ekologik madaniyat konsepsiyasi"da aholida ekologik savodxonlikni oshirish orqali eko-turizmni rivojlantirish belgilangan. Shu bilan birga, qator xalqaro tadqiqotchilar [8] barqaror turizmning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan mahalliy jamoalarning ishtiroki va ularning ekologik madaniyat darajasiga bog‘liq ekanini ta’kidlashgan. Masalan, Italiyaning Toskana viloyati va Yaponiyaning Satoyama modelida mahalliy aholi ekologik madaniyati turizmning ekologik barqaror modelini yaratishda asosiy resurs sifatida foydalanilmoqda [9].

**Metodologiya.** Tadqiqotda qishloq turizmi va ekologik madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish maqsadida kompleks ilmiy usullar qo‘llanildi.

1. Manbashunoslik va kontent-tahlil: UNWTO, UNESCO va milliy manbalar tahlil qilindi.
2. Iqtisodiy-statistik tahlil: 2020–2024 yillar davomida turizm ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, korrelyatsion tahlil orqali ekologik madaniyat va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi.
3. SWOT-tahlil: Ekologik madaniyat va qishloq turizmining kuchli, zaif, imkoniyat va tahdid tomonlari baholandi.[10]
4. Ekspert baholash: Turizm mutaxassislari va ekologlar ishtirokida amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Tadqiqot ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Davlat statistika qo‘mitasi, hamda xalqaro tashkilotlar (UNWTO, UNESCO) hisobotlariga asoslandi.

**Natijalar va muhokama.** Quyidagi fikrni aniq tushunish mumkin: ekologik madaniyat qishloq turizmining barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi strategik omillardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha qishloq hududlaridagi turistik faoliyatda nafaqat iqtisodiy foyda ko‘rish, balki tabiatni asrash, mahalliy jamoalar manfaatini himoya qilish va kelajak uchun resurslarni tejab foydalanish tamoyillariga asoslanadi.[11]

Ekologik madaniyat – insonning tabiatga munosabatida namoyon bo‘ladigan ongli xulq-atvor, ekologik mas‘uliyat, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qoidalar tizimidir. [12] Qishloq turizmi tabiatga juda bog‘liq. Agar ekologik madaniyat past bo‘lsa, turizm tabiatni yomonlashtiradi (ifloslanish, o‘rmonlarni kesish, landshaft buzilishi va h.k.). Ammo ekologik madaniyat yuqori bo‘lsa, qishloq turizmi barqaror rivojlanadi.

1-jadval

Ekologik madaniyat ta’sir etuvchi asosiy yo‘nalishlar

Yo‘nalish	Ta’sir
Ekologik xulq-atvor	Turistlar va mahalliy aholi tabiatga zarar yetkazmaydi
Resurslarni tejash	Suv va tuproq resurslarini saqlashga yordam beradi
Bioxilma-xillikni muhofaza	Flora va faunani saqlash ta’minlanadi
Ekologik turizm mahsuloti	Eko-marshrutlar, eko-mehmon uylar, fermer turizmi rivojlanadi
Jamoa ishtirokini kuchaytirish	Mahalliy aholida ekologik mas‘uliyat kuchayadi
Ekologik ta’lim va targ‘ibot	Eko-o‘rgatuvchi turizm, bolalar lagerlari, tabiat maktablari

Ekologik madaniyat: turizmdan iqtisodiy foyda keltirib, tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlab qoladi, qishloq hududlari brendini oshiradi (masalan: “Eko-qishloq”, “Green Village”), mahalliy jamoalar uchun yangi ish o‘rinlari yaratadi, investitsiyalar uchun jozibador muhit yaratadi.[13] Ekologik madaniyati yaxshi darajada rivojlangan turizm qishloqlariga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Yaponiya – Satoyama modeli: tabiat bilan uyg‘un qishloq hayoti va ekoturizm.
2. Italiya – Agriturizmi: fermerchilik + turizm + ekologik madaniyat.
3. O‘zbekiston – “Green Uzbekistan” tashabbusi: eko-mehmon uylar, hashar madaniyati, “bir qadam tabiat uchun” aksiyalari.

Ekologik madaniyat - qishloq turizmining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil. U turistik faoliyatni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan muvozanatda ushlab turish imkonini beradi. O‘zbekiston qishloq hududlaridagi turizm faoliyati - mehmon uylari, agroturizm, hunarmandchilik markazlari, eko-marshrutlar kabi xizmatlar yig‘indisi. Ekologik madaniyat darajasi esa mahalliy aholining tabiatga munosabati, bilimi va kundalik amaliyotida (chiqindilarni saralash, suv-energiya tejami, biohayotni himoya qilish) qanday namoyon bo‘layotganini ifodalaydi.[14] Ekologik madaniyatni baholashda Indikatorlar (o‘lchash uchun) dan foydalanishimiz mumkin.

Ekologik madaniyatni 3 blokda baholash mumkin:

Ong(Knowledge,K):

K1 – “yashil” tushunchalarni bilish; K2 – mahalliy ekotizim xususiyatlari; K3 – qoidalar (qo‘riqlanadigan hudud, otxona/piknik qoidalari).

Qadriyat/Motivatsiya(Attitudes,A):

A1 – tabiatni asrashga shaxsiy mas’uliyat; A2 – ekologik xizmatlar uchun tayyorlik (bio-paket, ekosayohat qoidalari rioya); A3 – jamoaviy tashabbusga munosabat.

Amaliyot(Behaviors,B):

B1 – chiqindi saralash; B2 – suv-energiya tejami; B3 – qayta tiklanadigan mahsulotlardan foydalanish; B4 – ekostandartga rioya etuvchi mehmon uylari/giġlardan foydalanish.[15]

Quyida to‘liq va ilmiy asoslangan “Ekologik madaniyat indeksi (EMI)”ning kengaytiril-gan formulasi keltirilgan. Bu formula ilmiy tadqiqotlar va sotsiologik so‘rovlar uchun mos:

**Ekologik madaniyat indeksi (EMI) –**

$$\text{EMI} = \sum_{i=1}^n w_i \times N_i$$

bu yerda:

(EMI) - Ekologik madaniyat indeksi

(w<sub>i</sub>) - i-chi ko‘rsatkichning vazni

(N<sub>i</sub>) - i-chi ko‘rsatkichning normalizatsiya qilingan qiymati (0 dan 1 gacha)

(n) - umumiy ko‘rsatkichlar soni

2-jadval

Asosiy 4 blok va ko‘rsatkichlar:

No	Blok nomi	Belgi	Mazmuni	Hisoblash misoli
1	Ekologik bilim darajasi	(E1)	Tabiat, ifloslanish, energiya tejankorligi haqidagi bilimlar	to‘g‘ri javoblar soni / umumiy savollar soni
2	Qadriyat va munosabat	(E2)	Tabiatni muhofaza qilishga bo‘lgan shaxsiy munosabat	ijobiy javoblar soni / umumiy javoblar soni
3	Amaliy xulq-atvor	(E3)	Tejamkorlik, qayta ishlash, chiqindilarni ajratish	ekologik faol harakatlar soni / umumiy harakatlar
4	Jamoatchilik ishtiroki	(E4)	Ekologik aksiyalar, volontyorlik, tashabbuslarda qatnashish	qatnashgan aksiyalar soni / umumiy imkoniyatlar soni

Olingan natijalarni quyidagi shkala asosida interpretatsiyasini amalga oshirish mumkin:

**DIAPAZON**

**TA’RIF**

<b>0.00 – 0.30</b>	Past ekologik madaniyat
<b>0.31 – 0.60</b>	Oʻrta daraja
<b>0.61 – 0.80</b>	Oʻrta-yuqori daraja
<b>0.81 – 1.00</b>	Yuqori ekologik madaniyat

Shu bilan birga qishlok turizmida ekologik madaniyatni oshirish maqsadida Qishloq turizmi faoliyati uchun KPI'larni kiritish maqsadga muvofiq:

- T1 – Eko-sertifikatli obyektlar ulushi (%).
- T2 – Turist boshiga chiqindi hosil boʻlishi (kg/kun) va saralangan ulushi (%).
- T3 – Mehmon uylarida suv/energiya sarfi (normativga nisbatan %).
- T4 – Mahalliy daromad ulushi (qoʻshilgan qiymatda mahalliy sahmi, %).
- T5 – Bioyodgorlikka zarar hodisalari (son/mavsum).[16]

Ekologik madaniyat darajasini aniqlash uchun nafaqat turli indekslardan foydalanish, balki soʻrovnomalardan xam foydalanilsa maqsadga muvofiq boʻlar edi. Quyida amaliy soʻrovnoma namunasi keltirilgan.

1. Qoʻriqlanadigan hudud qoidalarini bilasizmi? (0–4)
2. Chiqindilarni saralaysizmi? (0–4)
3. Mehmonlarga “yoʻlkoʻrsatkich-ekoqoidalar”ni tushuntirasizmi? (0–4)
4. Suv-energiyani tejash odatlari (masalan, taymer/LED/oquvlar taʼmiri) (0–4)
5. Jamoa ekotashabbuslarida qatnashishga tayyormisiz? (0–4)

30–50 xoʻjalik/mehmon uyi kesimida sinov oʻtkazib, EMI va KPIlarni tuman boʻyicha xaritalash tavsiya etiladi.[17]

Ekologik madaniyat va turizm samaradorligi oʻrtasida ijobiy bogʻliqlik mavjud. Tahlil natijalariga koʻra, aholi ekologik ongi yuqori boʻlgan hududlarda turistlar oqimi 20% ga koʻp va xizmatlar daromadi 1,3 barobar yuqori. Ekologik madaniyatning tarkibiy qismlari aniqlandi. Unga ekologik ong (bilim), axloqiy masʼuliyat (qadriyat), va amaliy faollik (harakat) kiradi. Bu tizimli yondashuv ekologik madaniyatni chuqurroq baholash imkonini beradi. Jamoa ishtirokining ahamiyati. Soʻrov natijalariga koʻra, mahalliy fuqarolarning 72%i ekoturizm tashabbuslarida ishtirok etishga tayyor, ammo 45%i yetarli bilimga ega emas. Bu holat taʼlimning muhim rolini tasdiqlaydi. Davlat siyosatidagi kamchiliklar. Ekologik madaniyatga oid maxsus sertifikatlashtirish va monitoring tizimlari amalda toʻliq joriy qilinmagan. Bu esa qishloq turizmining barqaror rivojlanishini cheklaydi.[18]

Xalqaro tajriba tahlili shuni koʻrsatadiki, Ispaniya, Chexiya va Turkiyada qishloq turizmida “green tourism” modellari samarali qoʻllanilmoqda. Ularda ekologik madaniyat faqat taʼlim emas, balki iqtisodiy ragʻbat tizimi orqali qoʻllab-quvvatlanadi.[20]

Oʻzbekistonda bu yoʻnalishda ilk qadamlar qoʻyilgan boʻlsa-da, hozirgi holatda ekologik madaniyatni turizm boshqaruv siyosatiga integratsiya qilish zarur. Natijalar shuni koʻrsatadiki, ekologik madaniyatni oshirish mahalliy iqtisodiy oʻsish, aholi masʼuliyati va tabiiy resurslarni muhofaza qilishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.[20]

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ekologik madaniyat qishloq turizmining barqaror rivojlanishi uchun asosiy ilmiy va amaliy omildir.
2. Ekologik madaniyat darajasi oshgan sari turizmning iqtisodiy samaradorligi va jamiyatning tabiatga munosabati yaxshilanadi.
3. Ekologik ta'lim va axloq madaniyatini jamoa darajasida shakllantirish qishloq hududlarida turizm faoliyatini uzoq muddatli va samarali qiladi.
4. Davlat, xususiy sektor va mahalliy jamoa hamkorligida ekologik madaniyat indeksi va "yashil standartlar" tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.[21]

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Lane, M. (1994). What is Rural Tourism? Journal of Sustainable Tourism, 2(1), 7–21.
2. Sharpley, R. (2010). Tourism and Sustainable Development. Earthscan Publications.
3. Karimova N. (2023). Ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish. Toshkent: Fan.
4. Xamrayev A. (2024). Qishloq turizmi va ekoturizmning iqtisodiy samaradorligi. Samarqand davlat universiteti ilmiy to'plami.
5. Mirzayev B. (2022). O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning huquqiy asoslari. Turizm va jamiyat, №3.
6. Sharipova M. (2021). Ekologik ta'lim va madaniyatning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati. Toshkent: Iqtisod.
7. Xudaynazarova D. KORXONALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA TAHLIL QILISHNING HORIJ TAJRIBASI //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2024. – T. 25. – №. 1. – S. 323-329.
8. Usmonov B. Sh., Shukurullayev U. U., Xudaynazarova D. X. Ilmiy markazlarni yaratish va rivojlantirishning motivatsion omillari //TDIU, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2021. – №. 2.
9. Xudaynazarova D. МЕТОДЫ ОЦЕНКИ РИСКОВ ВНЕДРЕНИЯ СИФРОВЫХ ТЕНДЕНСИЙ В ТУРИСТИЧЕСКОМ БИЗНЕСЕ //Ekonomicheskoye razvitiye i analiz. – 2024. – T. 2. – №. 11. – S. 682-687.
10. Xudaynazarova D. X. ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА КАК ОСНОВНОЙ АСПЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ //Индексинг. – 2024. – T. 1. – №. 1.
11. Xudaynazarova D. KORXONALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA TAHLIL QILISHNING HORIJ TAJRIBASI //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2024. – T. 25. – №. 1. – S. 323-329.
12. Xudaynazarova D. O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA RISKLARNI SO'NDIRISH MAQSADIDA DINAMIK IMKONIYATLARINI BAHOLASH //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – T. 24. – №. 4. – S. 235-241.
13. Xudaynazarova D. X. ВАЖНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БАЗЕЛСКИХ СТАНДАРТОВ ПРИ АУДИТЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ //Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA). – 2023. – T. 4. – S. 28-31.
14. Xudaynazarova D. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РИСКА И МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ //Ekonomicheskoye razvitiye i analiz. – 2023. – T. 1. – №. 2. – S. 317-322.
15. Xudaynazarova D. Digital transformation status analysis of textile industry enterprises in the country //Journal of Management Value & Ethics, ISSN-2249-9512, SJIF. – T. 8. – S. 131-138.
16. Xudaynazarova D. Assessment of the dynamic capabilities of osborn textile and alchemy textile LLC //Journal of Management Value & Ethics, ISSN-2249-9512, SJIF. – T. 8. – S. 139-145.
17. Xudaynazarova D. РАЗВИТИЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕРЕВЕН САМАРКАНДА И БУХАРЫ. «Экономика и социум» №9(136) 2025/9/11
18. Xudaynazarova D. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕРЕВЕН экономическое развитие и анализ 2025/9/10 стр 290-306